

## Bo'lajak o'qituvchilarda bunyodkorlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik modeli.

*Sanaqulova Z. A.*

*A.Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi*

**Annotation** Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarda bunyodkorlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik modeli va unga bo'lgan yondashuvlar tanlab chiqilgan. Unda bunyodkorlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik modeli va uning jarayonlari, tizimli, faoliyati, sub'ektiv, madaniy, akmeologik, kompetentli yondashuvlar asosida ta'lim muhitini tashkil etish, kasbiy va shaxsiy rejalarni ishlab chikishga ijodiy yondashuvi, mas'uliyatini tarbiyalash masalalari ishlab chiqilgan.

**Keywords.** oliy ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, bunyodkorlik, madaniyat, pedagogik model, tizimli, faoliyatli, sub'ektiv, akmologik, kompetentli, madaniy yondashuvlar.

«O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni mazmun va mohiyati» mavzusidagi 2017 yil "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlar yili" Davlat dasturi va unda Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni belgilab berdilar.<sup>1</sup>

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarda bunyodkorlik madaniyatini shakllantirishning samarali yo'llarini nazariy jihatdan asoslash, uni izohlaydigan ichki va tashqi omillar tizimini ishlab chiqish jarayonini modellashtirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki, modellashtirish davomida bo'lajak o'qituvchiga bunyodkorlik xususiyatlari ijtimoiy buyurtma sifatida o'rgatiladi. Modellashtirilayotgan jarayonning maqsad va vazifalari ishlab chiqiladi. Tayanch metodologik pozitsiyalar aniqlanadi. Modellashtirilayotgan jarayonning nazariy asosini tashkil etuvchi g'oya va kontseptsiyalar doirasi belgilanadi. Tashqi ijtimoiy va ichki ta'limiy muhit omillari, tadqiq qilinayotgan jarayonning yetakchi tendentsiyalari va ular asosida shakllanayotgan tajriba tabiatiga mos uni amalga oshirishning pedagogik tamoyillarining tizimi aniqlanadi. O'qitilayotgan o'quv fanlari doirasida ta'lim mazmuni loyihalashtiriladi. Bu jarayonning samarali kechish uchun zarur pedagogik sharoitlar majmui, ularni optimallashtirish buyicha tashkiliy choralar, modellashtirilayotgan jarayon natijalarini baholash mezonlari tizimi va zarur diagnostik vositalar kompleksi ishlab chiqiladi. Shakllantirilayotgan tajribaning satxi (darajali) parametrlari aniqlanadi, Bo'lajak o'qituvchida bunyodkorlik madaniyatini shakllantirishning real jarayoni funktsional mazmuni va uning natijaviyligi uchun ahamiyatga ega bo'lgan eng muhim quyidagi jarayonlar aks ettiriladi.

Modelning maqsadi, bloki, ta'lim jarayonida amalga oshiradigan yondashuvlar, g'oyalar, kontseptsiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarda bunyodkorlik madaniyatini shakllantirishning modellashtirilayotgan jarayonining asosi va uning oldida turgan kasbiy faoliyat pozitsiyalari

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi



ta'minlanadi.<sup>2</sup> Bu jarayonning mohiyati shundaki, pedagog va talabning birgalikdagi intilishlarini mavjud sub'ektiv tajribaga keltirishdir. Bu jarayonni biz bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish, unga boshqa, yanada ijtimoiy buyurtmaga mos shakl berish deb ataymiz. O'z mazmun mohiyatiga ko'ra bu sub'ektiv tajribaning maqsadga yo'naltirilgan pedagogik sharoitlarda barpo bo'lish va o'z o'zini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. "Shakllantirish" atamasi faqat bu jarayonning faolligi va maqsadga yo'naltirilganligini ta'kidlaydi. Shu pozitsiyada bu jarayonning maqsadlari ham ifodalanadi. Bo'lajak o'qituvchi oliy o'quv yurtida o'kish davrida o'qituvchiga bo'lgan ijtimoiy buyurtmani bajarish maqsadida maydonga chiqadi, Modellashtirilayotgan jarayonning maqsadini aniqlashda biz ularga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, ta'limni individuallashtirish, o'z o'zini rivojlantirish va o'z o'zini yo'lga qo'yish tamoyillaridan, aniqrog'i, maqsadning aniq ravshanligi, sub'ektiv tajribasining real holatini hisobga olib real pedagogik sharoitlarga va talabning shaxs potentsialiga mos shart-sharoitlar yaratishda o'qituvchining g'amxo'rliqi muhim o'rin tutadi.

Modellashtirilayotgan jarayonning maqsadi bo'lajak mutaxassisning bunyodkorlik madaniyatini shakllantirishdir. Ta'limda sub'ektiv yondoshuv mohiyati talabalarni pedagogik vositalar yordamida o'z o'zini tarbiyalash, o'z o'ziga ta'lim, o'z o'zini rivojlantirish pozitsiyasiga tayanib modellashtirilgan jarayonning operativ (tezkor) maqsadlarini aniqlash muhim hisoblanadi.<sup>3</sup> Bunda talabalarda: bilish, kasbiy va bunyodkorlik motivlari va mazmunini shakllantirish;

- bunyodkorlik faoliyatini amalga oshirish usullarini ochib beradigan bilimlar va ilmiy tushunchalar tizimini o'zlashtirish;
- o'quv kasbiy faoliyatini sub'ektiv o'z-o'zini boshqarish tajribasini egallash;
- bo'lajak o'qituvchining sub'ektiv tajribasida bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish komponentlarini integratsiyalash va mustahkamlash.

Albatta, ularni amalga oshirishda quyidagi ilmiy yondashuvlardan foydalaniladi.

<b>Yondashuvlar</b>					
Tizimli yondashuv	Faoliyatli yondashuv	Sub'yektiv yondashuv	Madaniy yondashuv	Akmeologik yondashuv	Kompetentli yondashuv

**- Tizimli yondashuv.**

- - bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish tizimini yaxlit barpo etish va uning bo'lajak o'qituvchining kasbiy tajribasidagi rolini aniqlash;
- - tajribaning har bir komponentini farq qiluvchi (ajratuvchi) xarakteristika va funktsiyalarini yaxlit hisobga olgan holda yoritish;
- - talaba tomonidan sub'ektiv tajribani egallash jarayonining komponentlarini rivojlanish dinamikasini differentsiyalash va integratsiyalashga tadqiq etish,

**Faoliyatli yondashuv.** Bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish jarayonini o'rganish va modellashtirishda:

<sup>2</sup> Olimov Sh., Hasanova Z. Pedagogik texnologiyalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonga qo'llash.-T.: Fan va texnologiya. 2014.

<sup>3</sup> Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. -T: «Nihol». 2013.



- faoliyatning komponentlari asosida tadqiq qilinayotgan tajriba tuzilishini ishlab chiqish;
- bo'lajak mutaxassis faoliyatini shaxsning rivojlanishi mexanizmi sifatida qarash;
- bo'lajak o'qituvchi bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish vazifasini pedagogik darajasiga o'tkazish;
- bunyodkorlik madaniyati elementlari, motivlar, maqsadlar, sharoitlar va pedagogik sharoitlar o'rtasida munosabat o'rnatish.

**Sub'ektiv yondashuv.** Sub'ektning o'zini bilish vositalariga amal qilishga imkon beradi va uning pozitsiyasi, bilish ob'ektini tenglashtiradi. U sub'ektning nafaqat voqelikni, balki o'z hayot faoliyatini, odamlarni tan olishga imkon beradi. Bunyodkorlik madaniyatini shakllantirishda sub'ektiv yondashuv imkoniyat yaratadi;

- talabani bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish va o'z-o'zini rivojlantirishga jalb etish;
- bunyodkorlik madaniyatini shakllantirishi tendentsiyalarini rivojlantirish jarayoni bilan barkaror aloqada bo'lish;
- o'quv-kasbiy faoliyatni sub'ektiv o'z - o'zini tashkil qilish tajribasini ajratish va shakllantirish.

**Madaniy yondashuv.** Bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish maqsadida bo'lajak o'qituvchi tayyorlash muammosini ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish pozitsiyasidan qarashga imkoniyat yaratadi. Bunda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofik:

- bo'lajak o'qituvchilarda bunyodkorlik madaniyatini, faoliyatini insonlarga, jamiyatga xizmat qilish;
- bo'lajak o'qituvchining bunyodkorlik madaniyatini ijtimoiy madaniy tajriba bilan o'zaro munosabatda bo'lish;
- ta'lim jarayonida fikrlashni hosil qilish, xamkorlik va dialog tajribasini egallaydigan madaniy jarayon sifatida modellashtirish muhim o'rin tugadi.

Talaba shaxsida bunyodkorlik madaniyatini shakllantirishda kasbga va hayot faoliyatida bunyodkorlik fakulstativ kurs tashkil etishga, o'quv, tadqiqotchilik, tarbiyaviy, ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish ularda ta'limiy, bunyodkorlik, ijodiy bosqichlarini rivojlantiradi.

**Akmeologik yondashuv.** O'qituvchi va o'quvchilarni turli hayotiy sohalarida o'z o'zini maksimal darajada ijodiy namoyon qilish:

- hayotiy istiqbollarning mavjudligi va muhimligini anglashga, bunyodkorlik motivatsiyasini oshirishga;
- bunyodkorlik faoliyati tajribasini o'qituvchining uning professionallikning cho'qqilariga chiqish yo'lidagi kasbiy tajribasi element sifatida qarashga;
- talabalarning ichki imkoniyatlarini va ularning bunyodkorlik faoliyati tajribasini shakllantirishga yo'nalganligini ochib berishga yordam beradi.

**Kompetentli yondashuv.** Talabalarda kelajakda samarali faoliyat xususiyatlarini aniqlashda mujassamlashgan ko'pgina turlarini ijtimoiylashtirish va bajarishga imkoniyatni ta'minlaydigan kompetentsiyalarni shakllantirishga e'tiborni qaratadi. Bu ta'lim maqsad - vektorlariga ilk mo'ljal: o'rganayotganlik, o'z o'rnini topish, o'z - o'zini faollashtirish, ijtimoiylashtirish va individuallikni rivojlantirish (Shaxs rivojlantiruvchi texnologiyalar). Bu g'oyalardan foydalanish psixologik faoliyat va shaxs elementlarini pedagogik vazifalar va ta'lim natijalari bilan o'zaro munosabatini ta'minlashga imkon berad.<sup>4</sup> Bo'lajak o'qituvchining kasbiy va bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish jarayonining ikki tendentsiyasiga ajratish mumkin.

<sup>4</sup> Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. -T: «Nihol». 2013.



**Natijalar va tavsiyalar:** Birinchi tendentsiya shundan iboratki, bo'lajak o'qituvchining bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish ta'lim mazmuni va madaniy - ta'limiy muhiti bilan ko'rsatiladigan ijtimoiy tajribaning bunyodkorlik komponentlarini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladi. Uni aniqlash oliy ta'limda asosiy qarama - qarshiliklardan birini hal qilishga yordam beradi: bunyodkor o'qituvchini shakllantirishga maqsadli ko'rsatma, zarur sub'ektiv tajribaning tizimsizligi bilan talabalarning an'anaviy ta'lim jarayonida sub'ektiv funktsiyalari rivojlanadi. Bunyodkorlik madaniyatini shakllantirish mexanizmi individning mikrosotsium (o'quv yurtining, shaharning, viloyatning, kasbiy hamjamiyatning) ijtimoiy madaniy muhitiga munosabatiga ko'ra o'z o'rnini topish va harakatdagi sub'ektning paydo bo'lish mexanizmi va jarayoni sifatida ijtimoiylashishning va individuallashishning mohiyatini tashkil qiladigan ob'ektiv madaniyati elementlarini egallash jarayonida amalga oshiriladi.

**Xulosa:** Yuqoridagilardan kelib chiqib shunu ta'kidlashimiz mumkinki, ushbu yondashuvlar asosida oliy ta'lim talabalarini kompetentligini oshirish va ijtimoiy muhitida, kasbiy salohiyatini takomillashtirish; o'zgartiruvchi faoliyat sub'ektlarining faolligini oshirish; loyihaviy ta'lim (o'qitish); o'quv - kasbiy faoliyatni tashkil qilish va o'zi rivojlantirish maqsadlari, strategiyalari, qonuniyatlari, mexanizmlari va usullari bilan tanishish; mazmunli kommunikatsiyalar metodi; kasbiy va shaxsiy, rejalarini ishlab chiqish; innovatsion, kreativ(ijodiy) rivojlanish; ijtimoiy va kasbiy mas'uliyatni tarbiyalash; maqsad qo'yish kabilar amalga oshiriladi.

#### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. Olimov Sh., Hasanova Z. Pedagogik texnologiyalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonga qo'llash.-T.: «Fan va texnologiya». 2014.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. -T: «Nihol». 2013.

